

| | | |
|---|---|---|
| 13.00.00 | 13.00.06 | 01.00.00 |
| 13.00.01 | 13.00.07 | 02.00.00 |
| 13.00.02 | 13.00.08 | 03.00.00 |
| 13.00.03 | 13.00.09 | 09.00.00 |
| 13.00.04 | 07.00.00 | 10.00.00 |
| 13.00.05 | 19.00.00 | 11.00.00 |

№4/2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 210 sahifa,
15-aprel, 2025-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
Qirg‘izboyev Abdug‘affor Karimjonovich
Tarix fanlari doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna
Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***

***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Umarova H.O‘. – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo‘icha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***



Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti.

**EDITOR-IN-CHIEF:**
Qirg‘izboyev Abdug‘affor Karimjonovich
Doctor of Historical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Umarova H.O‘. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko‘ra, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo‘yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

# MUNDARIJA

XXI asr tibbiyot atamashunosligi va unga ta'rif ........ 12
Achilov Muzaffar Norquliyevich

"4K" modeliga asoslangan ta'limda interaktiv metodlar va texnologiyalardan foydalanish usullari ........ 15
Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi

Oliy ta'lim muassasalari kafedrasi faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogik risklarni boshqarish mexanizmi ........ 18
Djalalov Baxromjan Begmurzayevich

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishning pedagogik aspektlari ........ 24
Djumayeva Dildora Isroilovna

Urma zarbli cholg'ular turlari va ularda ijro etish usullari ........ 27
Egamkulov Oybek Altmishevich

Umuminsoniy va diniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirishda dialektikaning roli ........ 31
Ergasheva Guzal Maxkambayevna

Bo'lg'usi tarbiyachilarda ijtimoiy intellektni shakllantirish zamon talabi ........ 34
Ermatova Gulnoz Pirimovna

Boshlang'ich ta'lim tarbiya fanida o'yin texnologilardan foydalanish metodikasi ........ 37
Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining yo'nalishlari va usullari ... 41
Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna

Kurash sport turiga qiziquvchi ayollarning motivatsiya va o'z-o'zini anglash darajasi ........ 44
Mamaraimova Ra'no Usmanovna

The Teaching of Oral Production in the FFL Classroom: Linguistic and Psychological Difficulties ........ 48
Narzulloyeva Dilfuza Bahriddin qizi

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini teatrlashtirilgan faoliyat asosida rivojlantirish ........ 54
Nurmatova Iroda Toxtasinovna

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda pedagogik amaliyotning o'rni ........ 56
Shamiyeva Manzura Fayzullayevna

Globallashuv jarayonida o'quvchilarning aksiologik kompetensiyalarini shakllantirish ........ 59
Siddikov Baxtiyor Saidkulovich

4-sinf o'quvchilariga maqollar ma'nosini tushuntirish usullari ........ 63
Suvonova Shohida Murodullo qizi

Kasbiy rivojlanish soatlarining pedagogik va psixologik asoslari ........ 69
Temirova Rushana Ravshan qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni shakllantirish mazmuni ........ 73
Teshabayeva Zamira Sobirovna, Abdulatipova Mehribon Qahramon qizi

Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM yondashuvi va xalqaro baholash dasturlari ........ 76
Usmonova Zulfiya Ilxomovna

Bo'lajak o'qituvchilarda konfliktologik kompetentlikning shaxs sifatlariga aloqadorligi ........ 79
Muxammadiyeva Xadicha Karomatovna

Русская документальная проза как отражение прошлого и настоящего общества ........ 82
Дустова Ирода Шукрулло кизи

Размышления о возникновении человеческих эмоций ........ 86
Умарова Навбахор Шокировна, Зарипова Нигинабону Фахритдиновна

Проблемы регулирования терминов в языкознании ........ 89
Курбанова Гузаль Абдурахимовна

Педагогические основы формирования интереса дошкольников
к изучению иностранного языка в игровой среде....93
Курбанова Назира Низомиддиновна

Mexanika fanining rivojlanish tarixi....97
Esanov Nuriddin Qurbonovich

Эффективность использования личностно-ориентированной
технологии обучения в учебном процессе....100
Намозова Манзура Муродовна

Oʻspirinlik davridagi depressiv holatlarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish usullari....104
Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich

Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish metodikasi....109
Radjabova Gulnoza Bahromovna

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining madaniy xilma-xillikni
inobatga olgan holda taʼlim jarayonini tashkil etish usullari....113
Saffarova Mohidil Axmadovna

Adabiy til va shevalar oʻrtasidagi leksik tafovutlar: kelib chiqish sabablari va rivojlanish xususiyatlari....116
Qurbonova Asal Oʻtkirovna

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini CALP yondashuvi asosida oʻqish savodxonligini oshirish....119
Ahmadjonova Mushtariy Bahodirjon qizi

Kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda boʻlajak mutaxassisning kasbiy kompetentligi....121
Artikova Nodira Shavkat qizi

Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlarini shakllanishining tarixiy-ijtimoiy omillari....125
Berdaliyeva S. D.

Boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy madaniyatini shakklantirish prinsiplari....128
Ibragimova Shaxnoza Tulqinovna

Boshlangʻich sinflarga matematika oʻqitish jarayonida koʻrgazmali
qurollardan foydalanib dars samaradorligini oshirish....132
Mardonov Eshim Muratovich, Xushvaqtov Ali Ashurovich, Narzullayeva Muxlisa Rustam qizi

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kasbiy-ijodiy faoliyatini takomillashtirish....135
Misirova Nodira Tovbayevna, Ergasheva Madina Qahramon qizi

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida 6-7-yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlik monitoringini tashkil etish....139
Ortiqova Gulhayo Erkinboy qizi

-ayotgan boʻlsa shaklining lisoniy xususiyati va uning oʻzgarishi....142
Safarov Firuz Sulaymonovich

Sharq mutafakkirlarining pedagogik taʼlimotlari va qarashlarida tarbiyaning maʼnaviy, axloqiy negizlari....145
Xalilov Farhod Furqat oʻgʻli, Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi

Anvar Obidjon ijodining tadrijiy takomiliga doir mulohazalar....148
Mamatalimov Zafar Mamaraimovich

Patologik fiziologiya fanini oʻqitishda it texnologiyalarining oʻrni....152
Abdirashidova Gulnoza Ablakulovna, Mavlyanova Umida Nematovna, Sobirova Raʼno Tulqin qizi

Boʻlajak oʻqituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishda
motivatsion yondashuvning oʻziga xos jihatlari....156
Abdumanopov Muhammadsodiq Muhammadyusuf oʻgʻli

The Role of Mass Media as a Tool in Teaching English Vocabulary to Young Learners....159
Dadaxonova Dilnavoz Zafarjon kizi

Maktabgacha taʼlim tashkilotlari taʼlim va tarbiya jarayonlarida
bolalarning refleksiv faoliyatini rivojlantirish....164
Dilorom Xomidova

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi....169
Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi

Oʻzbek yosh oilalarida nikohning dastlabki yillarida oilaviy nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari....173
Hakimova Nargiza Djavlievna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Tarbiyalanuvchilarni nutq madaniyatiga o'rgatishda tarbiyachi nutqi va unga qo'yiladigan talablar .............176
**Kazieva Turg'unoy Tursunboevna, Abdullayeva Kamola Erkin qizi**

Ikki tilli o'quv lug'atlari tuzishning lingvodidaktik asoslari
(ingliz va o'zbek tillari negizida yaratilgan ikki tilli lug'atlar misolida) .............179
**Oqboyeva Zulfiya Bobonazarovna**

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi .............183
**Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Bo'ronova Nigora Umar qizi**

Modern Opportunities for the Integration of Technologies Into the
Media and their Role in Improving the Efficiency of the Media .............187
**Salim Doniyorov**

Chizma geometriya va muhandislik grafikasi darslarida talabalarning mustaqil
ta'lim olish ko'nikmasini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish .............192
**Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich**

Теории и модели выбора брачного партнера .............197
**Абдумуталова Мадина Абдумалик кизи**

Maktabgacha ta'lim muassalarida autsorsingdan foydalanish masalalari .............203
**Kasimova Gulyar Axmatovna**

# MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSINGDAN FOYDALANISH MASALALARI

Kasimova Gulyar Axmatovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Budjet hisobi va g'aznachilik" kafedrasi professori, DSc

**ORCID: 0000-0002-9997-6104**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada davlat maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirish, tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirish tartibi hamda budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini oshirishda autsorsingdan foydalanish tahlil qilingan. Davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha budjet amaliyotida autsorsingni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy soha, inson kapitali, ijtimoiy dastur, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliyaviy nazorat, autsorsing, samaradorlik, xarajatlar natijadorligi, budjet xizmati.

**Abstract:** This article analyzes the financing of the state preschool education system, the procedure for organizing children's meals, and the use of outsourcing to improve the efficiency and effectiveness of budget expenditures. Practical proposals and recommendations for improving outsourcing in budgetary practice for the efficient use of state budget funds have been developed.

**Key words:** social sphere, human capital, social programs, education, healthcare, financial control, outsourcing, efficiency, cost effectiveness, budget services.

**Аннотация:** В данной статье анализируются финансирование государственной системы дошкольного образования, порядок организации питания детей, а также использование аутсорсинга в повышении эффективности и результативности бюджетных расходов. Разработаны практические предложения и рекомендации по совершенствованию аутсорсинга в бюджетной практике для эффективного использования средств государственного бюджета.

**Ключевые слова:** социальная сфера, человеческий капитал, социальные программы, образование, здравоохранение, финансовый контроль, аутсорсинг, эффективность, результативность расходов, бюджетные услуги.

## KIRISH

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolani sog'lom ovqatlantirish va ularga sifatli ta'lim-tarbiya berish eng dolzarb masala hisoblanadi. Sog'lom ovqatlantirishni yo'lga qo'ymasdan turib, sifatli ta'lim-tarbiya berish amaliyotini yo'lga qo'yish mushkul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslanishi, ta'lim bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim. Budjet intizomini yanada mustahkamlash, davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va soliq-budjet tizimining shaffofligini oshirish, davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini oshirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 10-noyabrdagi "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4887-son Qarori, 2021-yil 25-maydagi "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5124-son Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyuldagi 626-son "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning xavfsiz va sog'lom ovqatlanishini tashkil etish, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi hamda ovqatdan zaharlanishlarning oldini olish choralari belgilanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim muassasalari ta'lim sohasining katta bir bo'lagi hisoblanadi, jamiyat va uning a'zolariga ma'naviy xususiyatdagi xizmat ko'rsatish vazifasini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishni va ta'lim tizimidagi islohotlarni quyi bo'g'indan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlash zarurligi doim e'tiborga olinadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, bu sohani moliyaviy ta'minlashni takomillashtirish muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lim sohasi rivojiga bog'liq. "Ijtimoiy xizmat darajasining keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'riladi. Inson uchun o'ta muhim, yuqori kaloriyali oziq-ovqat iste'moli tarkibi takomillashtiriladi. Xalqimiz genofondini saqlash uchun homilador ayollar va bolalarning ovqatlanish ratsioni bo'yicha amaldagi me'yorlarni xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqiladi" [8].

A. Smit fikricha, "milliy boylikni taqsimlashda bolalar soni katta bo'lganligi uchun xarajatlarni ko'paytiradi. Bolalar katta bo'lganidan keyin ularning mehnatidan foydalanish bolalarning tarbiyasiga qilingan xarajatlarni qoplashi mumkin. Jamiyatda aholi sonining o'sishi hayot standartlari ko'rsatkichini tushirmaydi. Jamiyatda maktabgacha va maktab ta'limi xizmatiga e'tibor berish muhimdir" [10].

D. A. Raxmonov tomonidan "ijtimoiy sohani moliyalashtirish natijasida inson kapitalining rivojlanishiga sharoit yaratilishi alohida tadqiqot sifatida o'rganilgan" [18]. "Inson kapitalini moliyalashtirishda bir nechta yondashuvlar mavjud: maktabgacha ta'limni moliyalashtirish; o'rta maxsus va oliy ta'limni moliyalashtirish; sog'liqni saqlashni moliyalashtirish; madaniyatni moliyalashtirishni ko'rish mumkin" [22].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzada quyidagilarni ta'kidladilar: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" [7].

Maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarida bolalarni ovqatlantirishda autsorsingdan foydalanishning metodologik asoslariga nisbatan bir qator olim va tadqiqotchilar ilmiy munosabatlarini bayon etganlar. M. V. Kazakovseva tadqiqotlarida budjet xizmati ko'rsatishda autsorsing mexanizmini qo'llashning uslubiy yondashuvlari berilgan. Davlat mablag'laridan samarali foydalanish uslubini ishlab chiqishdagi boshlang'ich qadam – davlat moliyasini samarali boshqarish mezonlarini aniqlashdir. Samaradorlikni baholash mezoni jarayonlarning soni, sifat tavsifi va davlat mablag'laridan foydalanish natijalarini o'z ichiga oladi, shuningdek, qaysi natijalar davlat mablag'laridan samarali foydalanishga asoslanganligini ko'rsatadi. Budjet xarajatlarining natijadorligini baholash uslublari ichida budjet xizmati ko'rsatishda "autsorsing"dan foydalanishning to'rtta bosqichi orqali amalda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Quyidagi rasmda budjet tashkilotlarida autsorsingdan foydalanish algoritmi berilgan.

Bundan bir necha yillar ilgari "autsorsing" mexanizmi faqat xususiy sektorda foydalanilgan bo'lsa, bugungi kunda budjet tashkilotlarida ham ijtimoiy xizmat ko'rsatishda "autsorsing"dan unumli foydalanilmoqda. Autsorsing (outsourcing) – tashkilotning u yoki bu funksiyalarini shu faoliyatni olib borishga ixtisoslashgan tashqi ijro etuvchilarga berishdir. Boshqacha qilib aytganda, autsorsing deganda, davlat sektorining xususiy sektordan tovarlar, ishlar va xizmatlar sotib olishining umumiy hajmi tushuniladi.

Xorijiy olimlardan R. Timan o'zining "Outsourcing providers. Trend towards "bundled" services" nomli ilmiy maqolasida tashqi xizmat ko'rsatuvchi provayderlar orqali budjet tashkilotlarida autsorsingdan foydalanish g'oyasini bergan [20]. Autsorsing mexanizmining muvaffaqiyati ko'p jihatdan mijozga autsorsing modelida "berish va unutish" sxemasini anglatmasligini tushuntirishga bog'liq. Bu birinchi navbatda xizmat ko'rsatuvchi provayder bilan hamkorlik aloqalarini shakllantirishdir. Ish natijalari ko'p jihatdan buyurtmachi tomondan zarur ma'lumotlarni uzatishning o'z vaqtida va to'lig'ligi, hamda o'zaro kelishilgan kelishuv jadvaliga rioya qilish bilan bog'liq.

B.G. Ogyust o'zining "The Other Side of Outsourcing" nomli ilmiy maqolasida davlat tashkilotlari uchun autsorsingning ijobiy tomonlarini ko'rsatgan [12]. Landfeld-Smit, A. Kim o'zining "Managing the Outsourcing Relationship. Strategic Resource Management Series" nomli ilmiy maqolasida resurslarni boshqarish tizimi strategiyasida autsorsingning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan [17]. Budjet xizmati ko'rsatishning alternativ variantini ularni moliyalashtirishning natijadorligi nuqtayi nazaridan baholash kerak. Budjet xarajatlarining samaradorligini baholash uslubi A.V. Gukova va V.V. Tarakanov [13] va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida budjetning moddalar bo'yicha xarajatlarini optimallashtirish va budjet xizmati ko'rsatish natijalarini bog'lash imkonini beradigan indikatorlarni hisoblashga asoslangan (1-rasm). D.Ye. Amelin tadqiqotlarida ba'zi budjet xizmatlari ko'rsatishni raqobatdosh bozor subyektlariga o'tkazilishi ta'kidlangan [11]. N. Ignatyuk ilmiy ishlarida autsorsing davlat va xususiy biznes tomonidan budjet xizmati ko'rsatishni tartiblashtirishning varianti sifatida o'rganilgan [14].




1-rasm: **Budjet tashkilotlarida autsorsingdan foydalanish algoritmi** [24]

Fikrimizcha, budjet xizmati ko'rsatishda "autsorsing"dan foydalanish algoritmini aniqlashning ikkinchi bosqichida mazkur ko'rsatkichlarning hisob-kitobi taqdim etiladi. Uchinchi bosqichda yakuniy ko'rsatkichlar bo'yicha natija indeksi aniqlanadi. To'rtinchi bosqichda to'g'ridan to'g'ri ko'rsatkichlar indeksi bilan yakuniy ko'rsatkichlar indeksi yig'indisidan iborat yakuniy natijalar indeksi asosida budjet xizmatini autsorsingga berish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Yakuniy natijalar indeksi 0,25 punktdan kichik bo'lsa, budjet xizmatini autsorsingga berish to'g'risida qaror qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, qiyosiy taqqoslash kabi usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlaganlaridek, “...Har bir vazirning siyosiy maqomi, Prezident, Parlament va jamoatchilik oldidagi mas’uliyati oshiriladi, bunga mos ravishda javobgarligi ham kuchaytiriladi. Ularga aholi muammolarini hal qilish uchun yetarli vakolat va mablag‘ beriladi, vazirliklar faoliyatida ochiqlik, qonuniylik, natijadorlik va sifat asosiy mezon bo‘ladi” [9].

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida o‘z dolzarbligini ifoda etayotgan barcha maqsadlarga erishish, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda quyidagi indikatorlardan foydalaniladi:

- har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;
- barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash;
- suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini yaxshilash;
- “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni davom ettirish [5].

Respublikamizda vazirlik va idoralar, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining budjet-moliya sohasidagi asosiy vazifasi belgilandi:

- budjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanish hamda uni tejash, budjet intizomini mustahkamlash, budjet mablag‘laridan foydalanishning natijadorligi bo‘yicha hisobdorlik tizimini kuchaytirish;
- birinchi navbatda moliyalashtiriladigan (ish haqi, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmat) xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish va kreditor qarzdorlikka yo‘l qo‘ymaslik;
- obyektlarni loyihalash, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun nazarda tutilgan mablag‘larni, birinchi navbatda, oldingi yillardan o‘tuvchi obyektlarni ishga tushirishga yo‘naltirish.

Davlat maktabgacha ta’lim muassasasida tarbiyalanuvchilarni autsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha tanlov O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan (keyingi chorak ikkinchi oyining 25-kuniga qadar) oshkoralik, mablag‘larning iqtisodiy samarali sarflanishi tamoyillari asosida o‘tkaziladi. Komissiya autsorser faoliyati yuzasidan alohida monitoring olib boradi. Shuningdek, Komissiyaning faoliyati natijalariga ko‘ra, autsorserni “insofli ijrochi” yoki “insofsiz ijrochi” ro‘yxatiga kiritish huquqiga ega. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi (keyingi chorakning uchinchi oyining 5-kuniga qadar) tanlovda g‘olib chiqqan autsorser bilan muassasalarda autsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish xizmati ko‘rsatish bo‘yicha namunaviy shaklda shartnomalar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi.

1-jadval: **O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar grammda** [4]

| Bolalarning yoshi | Nonushta | Tushlik | Ikkinchi tushlik | Kechki ovqat |
|---|---|---|---|---|
| 1 – 3 yoshgacha | 250 – 330 | 445 – 480 | 200 – 210 | 280 – 310 |
| 3 – 7 yosh | 330 – 400 | 530 – 580 | 210 – 225 | 340 – 370 |
| **Bolalarga berilayotgan taomlarning nomi va miqdor** | | | | |
| Taom nomi<br>1 – 3 yoshgacha<br>3 – 7 yosh | | | Porsiya miqdori (g, ml) | |
| **Nonushta** | | | | |
| Bo‘tqa (sutli, yormali, sabzavotli) yoki sabzavotli taom | | | 120 – 150 | 150 – 180 |
| Yoki go‘shtli, baliqli, tvorogli, tuxumli taomlar garnir bilan | | | 50/100 | 50/130 |
| Qaynoq ichimliklar (sutli kakao, sut, sutli choy) | | | 100 – 130 | 130 – 150 |
| Non | | | 25 – 30 | 30 – 40 |
| yoki buterbrodlar | | | 35 – 65 | 40 – 75 |
| **Tushlik** | | | | |
| Sabzavotlardan tayyorlangan salat | | | 35 – 40 | 40 – 50 |
| 1-taom (sho‘rva, bulyon) | | | 120 | 150 |

| | | |
|---|---|---|
| 2-taom (quyuq taomlar) | 130 – 150 | 150 – 180 |
| yoki go'shtli, baliqli taom garnir bilan | 50/100 | 50/130 |
| Kompot, sharbat, kisel | 130 | 150 |
| **Ikkinchi tushlik** | | |
| Sut, qatiq, sutli choy, sharbatlar | 150 | 150 |
| Bulochka yoki xamirli qandolat mahsulotlari | 50 – 60 | 60 – 75 |
| **Kechki ovqat** | | |
| Bo'tqa (sutli, yormali, sabzavotli) yoki sabzavotli taom | 120 – 150 | 150 – 180 |
| Sut, qatiq | 130 | 150 |
| **Kechki tamaddi** | | |
| Qatiq, kefir, yoki mevalar | 100 | 130 |

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasida autsorsing usulida ovqatlantirishda ota-onalar to'lovi tarbiyalanuvchilarni oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida yo'naltiriladi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida autsorsing usulida sog'lom ovqatlantirish tuman (shahar) hokimligi tomonidan tasdiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari doirasida amalga oshiriladi.

Autsorserlar quyidagi talablar va belgilangan tartib asosida tanlab olinadi: maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan texnik vazifalar asosida autsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish loyihasini individual reja asosida ishlab chiqib, taqdimotini o'tkazishi; taqdimotda tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, fiziologik holati bo'yicha turli guruhlar uchun (taomnoma bo'yicha) ovqatlanishning maqbul me'yorlarini ko'rsatishi; davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida autsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tuman (shahar) hokimligi tomonidan tasdiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari doirasida amalga oshirishi; autsorsing xizmatlari bo'yicha kamida ikki oylik shartnoma summaga teng aylanma mablag'larning mavjudligi; tanlovda (tenderda) qatnashish uchun ariza berilgan kundan kamida bir oy oldin tegishli tashkilotlardan soliq qarzdorligi, to'lovlar, boshqa majburiy to'lovlar va moliyaviy sanksiyalarning mavjud emasligi.

2-jadval: Maktabgacha ta'lim muassasida tayyoplangan taomnoma tapkibi [24].

| Ovqatning nomlanishi | Bip nafar tapbiyalanuvchi uchun oziq-ovqat xarajatlari | Non | Choy | Tuz | Un | ... | ... |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Nonushta | | | | | | | |
| Tushlik | | | | | | | |
| Ikkinchi tushlik | | | | | | | |
| Kechki ovqat | | | | | | | |
| 1 nafar tarbiyalanuvchi uchun | | | | | | | |
| Jami mahsulot miqdori | | | | | | | |
| Mahsulot narxi | | | | | | | |
| Sapflangan mablag' miqdori | | | | | | | |
| Tarbiyalanuvchilar soni | | | | | | | |
| Jami sarflangan mablag' miqdori | | | | | | | |

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining maktabgacha va maktab ta'limi xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish, mazkur xarajatlar uchun ajratilgan budjet va budjetdan tashqari mablag'larning samaradorligini oshirish katta ahamiyatga ega. Davlat budjetidan maktabgacha ta'lim muassasalarini moliyalashtirish, oziq-ovqat xarajatlari uchun ajratilgan mablag'larning samaradorligini oshirish hamda ta'lim, tibbiyot sohasida davlat xaridi va autsorsingga qaratilgan nazariy, metodologik va tashkiliy masalalar o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish hamda tibbiy xizmat sifatini oshirishga alohida e'tibor beriladi. O'zbekistonda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, ijtimoiy xizmatlarni yaxshilashga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Hamshiralar taomnomani shakllantirish jarayonida bolaning yoshi,

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

jismoniy imkoniyatiga mos bo'lgan taomnomalarni shakllantirishda xatoga yo'l qo'ymaslik kerak. Binobarin, har oyda bolaga berilayotgan oziq-ovqat mahsulotining miqdori va sifati doim tahlil qilinishi kerak.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning fiziologik yoshiga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yiladigan talablar hamda ularni ratsiona lkunlik ovqatlantirish me'yorlari belgilanganligidan kelib chiqib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tanlov o'tkazish orqali salohiyatli tadbirkorlar aniqlanadi. Mazkur autsorserlar tomonidan davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga investitsiya kiritiladi. Bizning fikrimizcha, ishonchli autsorserlar bilan tuziladigan shartnomalar muddatini 1 yildan ortiq muddatga uzaytirishda davlat maktabgacha ta'lim muassasalari uchun har bir lotda bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan ma'muriy-geografik asosda tabaqalashtirish orqali autsorserga investitsiya kiritish majburiyatini belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, bir nafar tarbiyalanuvchiga kunlik zaruriy kilokaloriya bo'yicha ovqatlantirish xarajatlarini moliyalashtirishda ijtimoiy adolat tamoyili asosida yosh avlod sog'lig'i barqarorligini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini oshirish xarakteridagi mexanizm joriy qilinadi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha narx siyosatiga rioya qilish bo'yicha samarali moliyaviy nazorat qilish imkoniyati yaratiladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirishda ijtimoiy adolat prinsiplarining ta'minlanishiga erishiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel. – 50 bet. https://lex.uz/docs/6445145
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 626-son qarori. 2019-yil 25-iyul. https://lex.uz/docs/4441105
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 407-son qarori. 2021-yil 30-iyun. https://lex.uz/docs/7311020
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2-son qarori. 2023-yil 17-fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi" 27-son farmoni. 2023-yil 2-fevral. https://lex.uz/docs/6396146
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 300-son qarori. 2023-yil 11-sentyabr. https://lex.uz/docs/6600390
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligi tantanali marosimidagi ma'ruzasi.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligi tantanali marosimidagi ma'ruzasi. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. 2018 yil 8 dekabr. http://uza.uz/oz/politics/bilimli-avlod-buyuk-kelazhakning-tadbirkor-khal-farovon-ayet-08-12-2018
9. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. https://president.uz/uz/lists/view/5774
10. Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. New York: Random House, 1937. – P. 326.
11. Амелин Д.Е. Аутсорсинг муниципальных функций. М., 2008. URL: http://www.vscc.ac.ru
12. Auguste B.G., Hao Y., Weigand M. The Other Side of Outsourcing // The McKinsey Quarterly. 2002. – №1. – P. 3–15.
13. Гукова А.В., Тараканов В.В. Методика оценки результативности расходования бюджетных средств // Финансы и кредит. М., 2009. – № 17. – С. 10–17.
14. Игнатюк Н. Государственно-частное партнёрство в России // Право и экономика. М., 2006. – № 8. – С. 27–33.
15. Qosimova G.A. Budjet nazorati. Darslik. Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2023 yil. – 360 b.
16. Qosimova G.A. Davlat moliyaviy nazorati. Darslik. Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2024-yil. – 500 b.
17. Langfield-Smith K., Smith D., Stinger C. Managing the Outsourcing Relationship // Strategic Resource Management Series. New South Wales University Press Ltd., 2006-yil may. – P. 60–69.
18. Rahmonov D.A. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2018. – 70 b.
19. Rustamova D.D. Inson kapitaliga investitsiyalar va ularning xususiyatlari // Moliya. 2014-yil. – № 7. – B. 33–35.
20. Tieman R. Outsourcing providers: Trend towards "bundled" services // Financial Times. Special Report: Outsourcing. 2003 йил июнь. – № 30. – P. 4–21.
21. Shultz T. Human Capital, Family Planning and Their Effects on Population Growth // American Economic Review. 1994-yil may. – P. 45.
22. Xusanov D., Ergashev M. Inson kapitalining rivojlanish evolyutsiyasi // Moliya. 2017-yil. – № 2. – B. 90–94.
23. https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_P24_uz.pdf
24. Tadqiqotlar jarayonida o'rganilgan adabiyotlar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №4**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.